UDK: 94:902(575.1)

ILK SAKLAR MADANIY MEROSINING TARIXSHUNOSLIK TAHLILI VA ZAMONAVIY ILMIY QARASHLAR

Yusupov Axmedjon Shonazarovich,
Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: yusupov89a@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19967940

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Orolbo'yi hududida yashagan ilk sak qabilalari madaniyati tarixining o'rganilish bosqichlari tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida saklar tarixini o'rganish jarayonining shakllanishi va rivojlanishi tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tizimli yondashuv asosida yoritiladi. Jumladan, XVIII–XIX asrlarda amalga oshirilgan dastlabki havaskorlik xarakteridagi kashfiyotlar, ularning ilmiy ahamiyati va cheklanganlik jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, XX asr, ayniqsa sovet davrida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik ekspeditsiyalar natijasida sak qabilalarining moddiy madaniyati, ijtimoiy tuzilishi va hududiy joylashuvi bo'yicha muhim ilmiy natijalarga erishilgani tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida esa saklar tarixini o'rganishda milliy tarixshunoslikning yangi bosqichi shakllangani, ilmiy tadqiqotlarda xolislik, komplekslik va fanlararo yondashuvlarning ustuvorligi kuchaygani asoslab beriladi. Shu jarayonda saklarning "hayvon uslubi" san'atining mifologik va kosmologik mohiyati, harbiy arxitekturasi hamda ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari zamonaviy ilmiy konsepsiyalar asosida qayta talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sak qabilalari, tarixshunoslik, arxeologik tadqiqotlar, "hayvon uslubi", moddiy madaniyat, ijtimoiy tabaqalanish, kosmologik qarashlar, harbiy arxitektura, arxeologik ekspeditsiyalar, davlatchilik asoslari, fanlararo yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье анализируются этапы изучения истории культуры ранних сакских племён, проживавших на территории Приаралья. В рамках исследования процесс формирования и развития изучения истории саков рассматривается с точки зрения историографии на основе системного подхода. В частности, раскрываются первоначальные открытия любительского характера XVIII–XIX веков, их научное значение и существующие ограничения. Также анализируются важные научные результаты, достигнутые в XX веке, особенно в советский период, в ходе масштабных археологических экспедиций, позволивших изучить материальную культуру, социальную структуру и территориальное размещение сакских племён.*

Отмечается, что в годы независимости сформировался новый этап национальной историографии изучения сакской истории, в рамках которого усилилось значение объективности, комплексности и междисциплинарного подхода в научных исследованиях. В этом контексте мифологическая и космологическая сущность сакского искусства «звериного стиля», а также вопросы военной архитектуры и процессов социальной стратификации переосмысливаются на основе современных научных концепций.

Ключевые слова: *сакские племена, историография, археологические исследования, «звериный стиль», материальная культура, социальная стратификация, космологические представления, военная архитектура, археологические экспедиции, основы государственности, междисциплинарный подход.*

Abstract. *This article analyzes the stages of studying the history of the culture of early Saka tribes that inhabited the Priaralye region. The research examines the formation and development of Saka studies from a historiographical perspective, based on a systematic approach. In particular, the initial amateur discoveries of the 18th–19th centuries, their scientific significance, and existing limitations are highlighted. The study also analyzes important scientific results achieved in the 20th century, especially during the Soviet period, through large-scale archaeological expeditions that made it possible to investigate the material culture, social structure, and territorial distribution of the Saka tribes.*

It is noted that during the years of independence, a new stage of national historiography in Saka studies emerged, characterized by an increased emphasis on objectivity, comprehensiveness, and an interdisciplinary approach in scientific research. In this context, the mythological and cosmological essence of Saka "animal style" art, as well as issues of military architecture and social stratification processes, are reinterpreted based on contemporary scientific concepts.

Keywords: *Saka tribes, historiography, archaeological research, "animal style," material culture, social stratification, cosmological concepts, military architecture, archaeological expeditions, foundations of statehood, interdisciplinary approach.*

Kirish. Ilk sak qabilalari madaniyati Markaziy Osiyo hududida miloddan avvalgi davrlarda shakllangan eng qadimiy sivilizatsion qatlamlardan biri hisoblanadi. Ularning moddiy va ma'naviy merosi — xususan, "hayvon uslubi" san'ati, harbiy tuzilmalari va ijtimoiy tizimi — mintaqa tarixining muhim bosqichlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu bois saklar tarixini o'rganish nafaqat qadimgi jamiyat taraqqiyotini anglash, balki bugungi milliy o'zlikni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sak qabilalari madaniyatini o'rganish jarayonlari turli tarixiy bosqichlarda turlicha yondashuvlar asosida talqin qilingan. Ayniqsa, sovet davri tarixshunosligida mafkuraviy cheklovlar mavjud bo'lgan bo'lsa, mustaqillik yillarida ushbu merosga yangicha, milliy va xolis ilmiy nuqtayi nazardan yondashish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu jihatdan, saklar tarixini o'rganishning tarixshunoslik bosqichlarini tahlil qilish ilmiy qarashlar evolyutsiyasini aniqlashda muhimdir.

Zamonaviy tarix fanida manbashunoslik va tarixshunoslik tahlillariga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani bilan belgilanadi. Sak qabilalariga oid tadqiqotlarni tizimli ravishda o'rganish, ularning ilmiy darajasi, metodologiyasi va xulosalarini baholash orqali mavjud ilmiy bo'shliqlarni aniqlash va kelgusidagi tadqiqotlar yo'nalishini belgilash mumkin. Bu esa qadimgi tarixni chuqurroq anglash hamda uni ilmiy asosda qayta talqin qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo, Qozog'iston va Janubiy Sibirning ulkan hududlarida miloddan avvalgi I ming yillikda shakllangan sak qabilalari madaniyati jahon sivilizatsiyasining eng yorqin sahifalaridan biridir. Saklar nafaqat ko'chmanchi chorvadorlikning o'ziga xos tizimini, balki metallurgiya, zargarlik san'ati ("hayvon uslubi") va monumental me'morchilikning yuksak namunalarini yaratgan xalqlardir.

Ushbu merosni o‘rganishning tarixshunoslik bosqichlarini tahlil qilish mintaqa xalqlarining etnik va madaniy genezisini anglash imkonini beradi.

Mavzuning o‘rganilishi qadimgi mualliflar (Gerodot, Strabon va b.) ma’lumotlaridan boshlangan. XIX asrda A.I. Levshin [1], I.A. Kastanye [2] o‘zlarining ilmiy xulosalarini e’lon qilgan bo‘lsalar, XX asrning o‘rtalariga kelib S.P. Tolstov [3, 4] boshchiligidagi Xorazm ekspeditsiyasi saklarga oid ko‘plab yodgorliklarda ilmiy izlanishlar olib bordilar. Keyinchalik A.N. Bernshtam [5] tog‘li hududlardagi saklar hayotini o‘rgangan bo‘lsa, K.A. Akishev [6] tomonidan “Oltin odam”ning kashf etilishi saklar san’atining yuksak cho‘qqisi sifatida e’tirof etildi.

Mustaqillik yillarida G‘. Xodjaniyazov [8] va V.N. Yagodin [8] kabi olimlar saklarning harbiy me’morchiligi va o‘ziga xos xo‘jalik yuritish tizimlarini tadqiq etdilar. Akademik E.V. Rtveladze [10] saklar madaniyatini Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ajralmas bo‘lagi sifatida talqin qildi. A.S. Sagdullaev [9] saklar jamiyatidagi ijtimoiy tabaqalanishni davlat tuzilishiga o‘tish bosqichi sifatida baholadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tarixiylik, obyektivlik, tizimlilik kabi asosiy metodologik tamoyillardan foydalanilgan holda, ilk sak qabilalari madaniy merosining tarixshunoslik tahlili va zamonaviy ilmiy qarashlar yuzasidan ma’lumotlar asosida tarixiylik nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Saklar madaniyatini o‘rganishning dastlabki bosqichi XVIII–XIX asrlarda shakllangan bo‘lib, fanda u ko‘pincha “havaskorlik va tasodifiy kashfiyotlar davri” sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda ilmiy izlanishlar tizimli xarakterga ega bo‘lmagan, ko‘proq shaxsiy qiziqish va tasodifiy topilmalar orqali rivojlangan. Shu bilan birga, bu davr sak-skif madaniyatiga bo‘lgan ilmiy e’tiborning asosiy poydevorini yaratdi. XVIII asrda Pyotr I boshchiligida tuzilgan “Sibir tilla kolleksiyasi” orqali Sharqiy Rossiya hududlarida topilgan oltin buyumlar, zargarlik va boshqa moddiy yodgorliklar birinchi marta ilmiy e’tiborga olindi. Ushbu kolleksiya o‘sha davrda sak-skif san’ati va moddiy madaniyatiga nisbatan qiziqish uyg‘otdi, shuningdek, ekspeditsiyalarning natijalarini yig‘ish va tasniflashga xizmat qildi. Rossiya imperiyasining sharqiy hududlariga yuborilgan harbiy-topografik ekspeditsiyalar ham bu davrda ilmiy izlanishlarning asosiy manbalaridan biri bo‘ldi. Ushbu ekspeditsiyalar nafaqat hududni xaritalash, balki tasodifiy topilmalarni yig‘ish orqali saklarning moddiy merosini o‘rganish imkonini berdi. Natijada, qo‘rg‘onlar, minoralar, temir buyumlar, qurol-yarog‘lar va oltin buyumlar birinchi marta ilmiy e’tiborga olindi.

Saklar madaniyatini o‘rganishning ilk bosqichida XVIII–XIX asr tadqiqotlari asosan havaskorlik va tasodifiy topilmalar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bu davrning ilmiy

ahamiyati juda katta. Ayniqsa, A.I. Levshin (1832) va I.A. Kastanye ishlari tarixshunoslikda saklar madaniy merosini tizimli o‘rganishning poydevorini yaratdi.

A.I. Levshin birinchi bo‘lib qo‘rg‘onlarni shunchaki landshaft ob’ekti sifatida emas, balki antik manbalardagi xalqlar bilan bog‘lovchi tarixiy yodgorlik sifatida talqin qildi [1]. U qo‘rg‘onlarni geografik va etnik jihatdan tasniflashga urindi, bu esa saklarni Markaziy Osiyo qadimiy aholisi sifatida ilmiy muomalaga kiritdi. Levshinning tadqiqotlari saklar madaniyatini “noma’lum o‘tmish”dan chiqarib, uni xalqaro tarixshunoslikda ko‘rib chiqishga imkon berdi. U qo‘rg‘onlarni xaritalash va etnik tasniflash orqali, ularning ma’lumotlarini antik manbalar bilan solishtirdi va saklar bilan bog‘liq yodgorliklarni tarixiy jarayonlarda joylashtirdi. Shu bilan birga, Levshinning ishlari XIX asrning dastlabki arxeologik nazariyalariga asos bo‘lib xizmat qildi, keyingi ilmiy ekspeditsiyalar uchun konseptual poydevor yaratdi.

XIX asr oxiriga kelib, I.A. Kastanye tomonidan sak-skif yodgorliklarining ilk yirik katalogi yaratildi [2]. Kastanye qo‘rg‘onlarning ichki tuzilishini, ularning oltin buyumlar, qurol-yarog‘ va boshqa moddiy boyliklarini tizimli tahlil qildi. Tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, ushbu moddiy meros sak qabilalarining murakkab ijtimoiy tabaqalanishiga (shohona tabaqa, harbiy aristokratiya, oddiy jamoatchilar) ishora qiladi. Kastanye topilmalar orqali saklar jamiyatining yuqori tashkil etilgan harbiy-siyosiy tuzilishini ilmiy asos bilan tasdiqladi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat arxeologik tafsilotlarni, balki ijtimoiy-huquqiy va madaniy jihatlarni ham o‘rganishga yo‘l ochdi, saklar tarixshunosligini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini berdi.

Levshin va Kastanye ishlari sak madaniyatini ilmiy kontekstga olib kirgan ilk tizimli tadqiqotlar sifatida tarix fani uchun katta ahamiyatga ega. Bu davrning tadqiqotlari saklarni nafaqat ko‘chmanchi qabilalar sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy va siyosiy tizimga ega bo‘lgan xalq sifatida ko‘rishga imkon yaratdi. Shu bilan birga, ushbu ishlarda topilmalar, qo‘rg‘onlar va arxeologik yodgorliklar tahlili orqali ilmiy metodologiya shakllandi. Bu tadqiqotlar keyinchalik Sovet davri va Mustaqillik yillaridagi keng ko‘lamli arxeologik ekspeditsiyalar va ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘ldi.

XX asrning o‘rtalariga kelib, sakshunoslik o‘zining yangi bosqichiga – keng ko‘lamli sistematik ekspeditsiyalar davriga qadam qo‘ydi. Ushbu davrda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi muhim ilmiy natijalarga erishdi. Ekspeditsiya natijalari Orolbo‘yi hududidagi sak-massagetlarning mudofaa inshootlari va o‘troq dehqonchilik madaniyatini aniqlash imkonini berdi [3]. Tolstovning 1948-yilda nashr etilgan “Qadimgi Xorazm” asari sak-massaget ittifoqlarida ilk davlatchilik asoslari shakllanganini moddiy topilmalar orqali isbotladi [4]. Bu kashfiyotlar saklarni faqat ko‘chmanchi sifatida ko‘rishga oid an’anaviy

qarashlarni rad etdi, ularning murakkab siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ekspeditsiya natijalari shuni isbotladiki: sak-massaget qabilalari faqat chorvador-ko‘chmanchi jamiyat emas, balki o‘troq dehqonchilik va mudofaa inshootlari orqali tartiblangan siyosiy-harbiy tuzulishlarga ega xalq sifatida ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinishi lozim. Shu bilan birga, topilmalar Markaziy Osiyoda dastlabki davlatchilik va siyosiy tizimlarning shakllanish jarayonini ochib berdi. Shuningdek, A.N. Bernshtam Pomir-Oloy va Tyan-Shan hududlarida saklarning tog‘li sharoitdagi yashash tarzini va ijtimoiy tuzilmasini yoritdi [5]. 1960-1970 yillarda K.A. Akishev tomonidan Beshshatir va Issiq qo‘rg‘onlarining (mashhur “Oltin odam”) ochilishi saklar san’atining cho‘qqisi va ularning kuchli harbiy-siyosiy tashkilotga egaligining eng yirik isboti bo‘ldi [6].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, saklar tarixini o‘rganishda mahalliy davlatchilik ildizlari va etnogenez masalalariga ustuvor ahamiyat berila boshlandi. G‘. Xodjaniyazov sak-massaget qabilalarining harbiy arxitekturasini tahlil qilar ekan, Tuproqqal’a va Burgutqal’aning quyi qatlamlari misolida ularning mudofaa inshootlari qurishdagi o‘ziga xos maktabini ko‘rsatib berdi [8]. Bu esa saklarning strategik nuqtalarda mustahkam istehkomlar barpo etgan o‘troq hayot tarzi vakillari ham bo‘lganini tasdiqladi.

Akademik E.V. Rtveladze sak madaniyatini antik va baqtriya sivilizatsiyalari bilan dialektik bog‘liqlikda o‘rganib, ularning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o‘rnini belgiladi [10]. V.N. Yagodin tomonidan Ustyurt va Mang‘ishloq hududlarida o‘rganilgan “o‘qsimon” inshootlar sak-tigraxauda qabilalarining o‘ta og‘ir tabiiy sharoitlardagi o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy tipini belgilab berdi [8].

Ilk temir davriga kelib sak-massaget jamiyatida mulkiy tabaqalanishning kuchayishi ulkan “shohona” qo‘rg‘onlar va oddiy qabrlar o‘rtasidagi keskin farqda namoyon bo‘ladi. Bu jarayon harbiy-demokratik boshqaruvdan erta davlat tuzilmalariga o‘tishning moddiy ifodasidir [9].

Tadqiqotchi D.S. Rayevskiy saklar madaniyati va san’atining semantik tahlili orqali yangicha ilmiy qarashni ilgari surdi. Uning talqiniga ko‘ra, “hayvon uslubi” san’ati shunchaki dekorativ motivlar yig‘indisi emas, balki dunyoning mifologik modelini gavdalantiruvchi murakkab belgilar tizimidir [12]. Har bir zoomorfik obraz ma’lum bir kosmologik tushunchaning vizual ekvivalenti bo‘lib, hayvonlarning o‘zaro kurashi tabiiy va g‘ayritabiiy kuchlarning dinamik muvozanatini ifodalaydi.

Xulosa. Ilk sak qabilalari madaniyati tarixini o‘rganishning tarixshunoslik bosqichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalish uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o‘tgan va har bir davr o‘ziga xos ilmiy yondashuv, metodologiya hamda manba bazasi bilan ajralib turadi. Dastlabki bosqichda (XVIII–XIX asrlar)

saklarga oid ma’lumotlar asosan sayyohlar va havaskor tadqiqotchilar tomonidan yig‘ilgan bo‘lib, ular ko‘proq tavsifiy xarakterga ega edi. Bu davrda ilmiy tizimlilik yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa-da, keyingi tadqiqotlar uchun muhim empirik asos yaratildi. Keyingi bosqich – XX asrning birinchi yarmi va ayniqsa sovet davri – saklar tarixini o‘rganishda burilish davri bo‘ldi. Arxeologik ekspeditsiyalar keng miqyosda olib borildi, moddiy madaniyat namunalarini ilmiy tahlil qilish yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, tadqiqotlar ko‘pincha davr mafkurasi ta’sirida olib borilganligi sababli, ayrim masalalar biryoqlama talqin qilindi. Shunga qaramay, aynan shu davrda saklar madaniyatiga oid asosiy ilmiy tushunchalar, tasniflar va nazariy qarashlar shakllandi.

Sak qabilalari madaniyati tarixini o‘rganishning tarixshunoslik bosqichlari ilmiy tafakkur evolyutsiyasini aks ettiradi. Mazkur yo‘nalishda erishilgan natijalar muhim bo‘lsa-da, hali ham ko‘plab masalalar chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli tarix usullari va yangi manbalar asosida olib boriladigan izlanishlar kelajakda saklar madaniyati haqidagi bilimlarni yanada boyitishi va aniqlashtirishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Левишин А. И. Описание киргиз-казачьих, или киргиз-кайсацких, орд и степей. – СПб., 1832. – С. 158-160.
2. Кастанье И. А. Древности Киргизской степи и Оренбургского края. –Оренбург, 1910. – С. 24-26.
3. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948. – С. 112-115.
4. Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – С. 341.
5. Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1952. – С. 4-6.
6. Акишев К. А. Курган Иссык: Искусство саков Казахстана. – М.: Искусство, 1978. – С. 3, 53.
7. Ртвеладзе Э. В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: Адолат, 2005. – С. 84.
8. Xodjaniyazov G‘. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari (mil. avv. VI asrdan mil. IV asrgacha). – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2007. – B. 58-60.
9. Ягодин В. Н. Саки тиграхауда – массагеты Арало-Каспия // “Арало-Каспийский регион в истории и культуре Евразии”. – Алматы-Актобе, 2011. – С. 160-161.
10. Ртвеладзе Э. В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: Адолат, 2005. – С. 84.
11. Раевский Д. С. Очерки идеологии скифо-сакских племен: Опыт реконструкции мировоззрения скифского общества по материалам фольклора и искусства. – М.: Наука, 1977. – С. 133-135.